

**ALLERGIK RINITNI BOLALARDA KLINIK ALLERGOLOGIK XUSUSIYATLARI****To'xtayeva O.T**

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti. Allergologiya klinik immunologiya  
mikrobiologiya kafedrası t.f.n. dotsent*

**Annotatsiya:** *Mavsumiy allergik rinit bilan kasallikning boshlanishi o'simliklarning gullash davriga to'g'ri keladi. Agar inson tanasi kasallikni keltirib chiqaradigan allergenga, ya'ni bu o'simlikning gulchanglariga juda sezgir bo'lsa, bunday hollarda kasallikning klinik belgilari rivojlanadi. Mavsumiy allergik rinit xozirgi kunda butun dunyo bo'ylab shu jumladan O'zbekistonda xam keng tarqalgan mavsumiy, klinik xarakterga ega bo'lgan allergik kasallik xisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** *allergenlar, allergik rinit, predispozitsiya qiluvchi omillar, bolalar.*

**CLINICAL AND ALLERGOLOGICAL FEATURES OF ALLERGIC RHINITIS IN CHILDREN****Tukhtaeva O.T**

*Tashkent State Medical University. Associate Professor of the Department of Allergology, clinical immunology, microbiology, candidate of medical sciences*

**Key words:** *allergens, allergic rhinitis, predisposing factors, children.*

In seasonal allergic rhinitis, the onset of the disease coincides with the flowering period of plants. If the human body is highly sensitive to the allergen that causes the disease, that is, to the pollen of this plant, in such cases clinical symptoms of the disease develop.

Allergik rinit - bu burun shilliq qavatining kasalligi bo'lib, uning asosi sababli sababchi allergenlardan kelib chiqqan allergik yallig'lanishdir. Mavsumiy allergik rinitning klinik belgilari yilning ma'lum vaqtlarida paydo bo'ladi va ko'pincha ma'lum o'simliklarning gulchanglari bilan aloqa qilish natijasida yuzaga keladi.

O'simlik changiga sensibilizatsiya paydo bo'lishi (pollinoz) turli klinik ko'rinishda bo'lishi mumkin: allergik rinit, allergik konyuktivit, bronxial astma. bemorlarda sensibilizatsiya boshqa allergik xolatlarni (atopik dermatit, laringotraxeit, kesishma reaksiya, surunkali qavarchiqlar) keltirib chiqarishi mumkin [1,2,5,6].

Mavsumiy allergik rinit mavsumiy xususiyatga ega bo'lib, kasallikning boshlanishi, asosan ayrim allergen o'simliklarning gullashi bilan boshlanadi. Inson organizmi aynan kasallikni chaqiruvchi allergenga nisbatan ya'ni shu o'simlik gulchangiga seuvchanligi yuqori bo'lsa bunday xolatlarda kasallik rivojlanadi [3,4,7,10]. O'smirlarda mavsumiy allergik rinitni keltirib chiqaruvchi omillar turlicha bo'lib asosan sababchi allergen bilan kontakt kasallikni qo'zg'alishiga sabab bo'ladi,



bundan tashqari bir qancha omillar xam kasallik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, masalan; o'tkir xidlar, ota onaning doimiy bolalar yonida tamaki chekishi, a'zolar kasalliklari, sovuq xavo va x.k. O'smirlarda mavsumiy allergik rinitni keltirib chiqaruvchi omillar turlicha bo'lib asosan bolaning yashaydigan joyiga va organism sezuvchanligiga bog'liq [4,8,9,10].

Tadqiqot maqsadi. Toshkent shahrida yashaydigan o'smirlarda mavsumiy allergik rinitni klinik allergologik xususiyatlarini o'rganish.

Materiallar va uslublar. Tekshiruvimizdagi bolalarni 2 ta guruxga bo'lib o'rgandik: asosiy gurux 60 ta bola mavsumiy allergik rinit tashxisi bilan va solishtirish guruhida 40 ta bola yil davomida simptomlari kuzatiladigan allergik rinit tashxisi bilan bolalar.

Asosiy guruxda 32 ta qiz bolalar (53,3%) va o'g'il bolalar 28 ta (46,7%), solishtirish guruxida qizlar 23 ta (57,5%) va o'g'il bolalar 17 ta (42,5%) ni tashkil qildi. Asosiy va solishtirish guruxidagi bolalar umumiy qabul qilingan qoydalar asosida ko'rikdan o'tkazildi. Allergik rinit tashxisi Xalqaro Kasalliklar Tasnifi 10 bo'yicha qo'yildi.

Mavsumiy allergik rinitni keltirib chiqaruvchi o'simlik gulchaglari quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak; o'simliklar ko'p miqdorda chang ishlab chiqarishi kerak; o'simlik changlari shamol va hasharotlar tomonidan uzoq masofalarga tarqalishi uchun yengil va uchuvchan bo'lishi kerak, bunday chang tarqatuvchi o'simlik, daraxtlar va changlar ma'lum geografik mintaqada keng tarqalgan bo'lishi kerak; o'simlik changlari aniq allergen xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

Tekshiruv usullari: 1. Allergoanamnez 2. Teri sinamalari-Prik testlar. 3. Spirometriya. Tekshiruvimizdagi barcha bolalardan alleroanamnez yig'ildi, bolalardan anketa so'rovnamlar o'tkazildi. So'rovnomadagi savollarni bolalar individual to'ldirishdi. Anketa so'rovnamlar 2 bosqichda davodan oldin va davodan so'ng o'tkazildi. Allergoanamnez yig'ish jarayonida ota - onaning qanday allergik kasalliklar bilan kasallanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar ham to'plandi. Musbat javob uchun " + " qo'yildi.

Bolalarda mavsumiy allergik rinitni Toshkent shahrida ko'pincha fevral oyining oxirlari va mart oylarining boshida gullaydigan murakkab changlanuvchi daraxtlar o'simliklar va gullar tashkil etdi.

Bunday o'simlik va daraxtlarga asosan bodom va yong'oq daraxti, qayin va olxa kiradi, bundan tashqari shuvoq, gilos daraxtlarining gullariga allergiya 58,6% ni tashkil etdi. Kuzatuvimizdagi bolalarning 40,3% esa timofeevkaga yuqori sezuvchanlik yoz oylarida kuzatildi.

Asjisy guruh bolalarida Mavsumiy allergik rinit patogenezini asosan IgE ga bog'liq bo'lgan birinchi turdagi allergik reaksiyalar tashkil qildi.

Allergen organizm bilan kontaktga kirishgach, shilliq qavatning immunokompetent hujayralari Th2- limfotsitlar biologik faol tartibga soluvchi oqsillar interleykinlarni ajratib chiqaradi va semiz hujayra retseptorlariga, shilliq qavat bazofillari va boshqa hujayra retseptorlari, monotsit, eozinofillar va B hujayralar IgE



antitanachalar ishlab chiqaradi. Organizmning allergen bilan qayta aloqaga kirishi natijasida allergik reaksiya rivojlanadi.

O'smirlarda mavsumiy allergik rinitni o'simliklarning sababchi chang allergenlari chaqirgan xolatlarida klinik simptomlar ustun turishi aniqlandi.

Kuzatuvimizdagi asosiy guruh bolalarning ko'pchiligida 2 ta gurux va undan ko'p chang allergenlariga sensibilizatsiyasi aniqlandi 79,8% da murakkab changlanuvchi o'simlik va gullar va daraxtlar changlariga esa 54,7% kuzatildi.

Sababchi allergenlar teri sinamalari (skarifikatsion sinamalar), allergotestlar yordamida aniqlanganda eng ko'p aniqlangan allergenlar Toshkent shaxrida yashovchi bolalarda bodom va yong'oq daraxti, qayin, shuvoqqa ko'pligi aniqlandi.

O'smirlarda mavsumiy allergik rinitni keltirib chiqaruvchi sababchi allergenlar: Bodom 11(18,3%), yong'oq 10 (16,6%), qayin 9(15%), olxa 8 (3,3%), timofeevka 8 (13,3), polin 7 (11%), listoxvost, 4(6,6%), raygras 3(5%)

Meva va ba'zi o'simliklar allergenlari changlaridagi o'xshashlik va ularni kesuvchi reaginli antitelolar xosil qilishi natijasida pollinozni rivojlanishiga va ovqat allergiyasining klinikasini rivojlanishiga ham sabab bo'ladi.

O'smirlarda klinik polimorfizm xos bo'lib, klinik simptomlar turlicha namoyon bo'ladi.

Mavsumiy allergik rinit o'smirlarda ko'pincha allergik mavsumiy kon'yuktivit bilan birgalikda (34% ) kechdi, nafas yo'llari yallig'lanishi, terida toshmalar (5,6%) va ichki a'zolar zaralanishi (2,9%) ni tashkil qildi.

Kuzatuvimizdagi o'smirlarda (Toshkenda) asosan qayin, yong'oq, bodom va boshqa daraxtlar va o'simlik gullari changlaridan mavsumiy allergik rinit rivojlanishi aniqlandi. Yoz kuz mavsumida esa qiyin changlanuvchi o'simliklar va daraxtlar changlari kasallikni chaqirishi aniqlandi; kungaboqar, shura, qaqraga sezuvchanlik yuqori ko'rsatgichlarda bo'ldi.

O'simliklar gullashi tugagandan so'ng xam o'smirlarda (15-18 yosh) IgE qon zardobida yuqori miqdorda saqlanib turishi aniqlandi.

O'tkazilgan tekshiruvlarimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, umumiy IgE qon zardobida kuzatuvimizdagi bolalarning 97,9 % da ortishi aniqlandi.

Eng yuqori ko'rsatgichlar teri sinamalari yuqori (+++ yoki +++) miqdorda aniqlangan o'smirlarda namoyon bo'ldi, hamda polisensibilizatsiya xolatidagi o'smirlarda, kasallikning og'ir kechishi va og'ir asoratlarga olib kelishi aniqlandi.

O'simliklar gullashi tugagandan so'ng xam o'smirlarda ayniqsa katta yoshli (15-18 yosh) guruxda IgE qon zardobida yuqori ko'rsatgichlarda saqlanib turishi kasallik simptomlarini turg'unligi bilan namoyon bo'ldi.

O'smirlarda mavsumiy allergik rinitni rivojlanishida nasliy moillik 68,3% (36 ta bolada) axamiyati kasallik chastotasiga bog'liqligini oylaviy anamnez yig'ish orqali taxlil qilinib tasdiqlandi. 60 ta boladan ona tomonidan 43,3% (23 ta bolada), ota tomonidan esa 32% (17 ta bolada), ikkala ota onasi tomonidan esa 24,5% (13 ta bolada) aniqlandi.



Ota onalarning ko'pchiligida bronxial astma, pollinoz, atopik dermatitlar, qavarchiqlar, Kvinke shishi ovqat allergiyasi, dori allergiyasi xam mavjudligi aniqlandi.

Allergik anamnezimiz natijalariga ko'ra mavsumiy allergik rinit bolalarda atopik dermatit, atopik Bronxial astma ovqat allergiyasi bilan residivlanuvchi qavarchiqlar bilan xamroh kechishi tasdiqlandi.

Mavsumiy allergik rinit 44% bolalarda kasallik manifestatsiyasidan oldin sitrus mevalarga, asalga, yong'oqqa, shokolad, sigir sutiga, baliq, tuxum va ko'pgina meva sabzavotlarga mavjudligi aniqlandi.

Asosiy guruh bolalarida o'simlik guli changlari bilan birga ovqat allergenlarining umumiy antigenlik determinantlari borligi isbotlandi. O'smirlarda murakkab changlanuvchi o'simliklarga sezuvchanlik yuqoriligi o'z tasdig'ini topdi.

Allergologik tekshiruvlar natijalariga ko'ra qayinga sensibilizatsiya yuqori bo'lganda yong'oqqa allergik simptomatika - 26,4% namoyon bo'lishi aniqlandi, olmaga - 21,9 %, shaftoliga - 12,1%, sabziga - 9%, kortofelga - 4% o'smirlarda allergik klinik simptomlar kuzatildi.

Natijalar. O'smirlarda mavsumiy allergik rinitni keltirib chiqaruvchi omillari olingan taxlillar natijalariga ko'ra mart aprel oylariga to'g'ri kelishi tasdiqlandi.

Qo'zg'alishlar cho'qqisi asosan murakkab changlanuvchi o'simliklar baxorda va yoz mavsumida o'simliklar gullashi bilan bog'liqligi aniqlandi.

Kasallikning klinik shakllarini aniqlash sababchi allergenlar va hamroh allergic kasalliklar, kon'yunktival simptomlar bilan kelganda ko'pincha kasallikning uzoq davom etishi, va ko'pincha kasallik og'ir asoratlarni keltirib chiqqarishi aniqlandi.

Shunday qilib Toshkent shaxrida istiqomad qiluvchi o'smirlarda mavsumiy allergik rinitni keltirib chiqaruvchi allergen turlari baxorda (56,1% o'smirlarda) va yoz mavsumida (37,4%) kuzatilishi aniqlandi.

Kuzatuvimizda bo'lgan o'smirlarda Mavsumiy allergik rinitni keltirib chiqaruvchi omillar olingan taxlillar natijalariga ko'ra aprel oyida kasallikning avj olishi aniqlandi.

Qo'zg'alishlar cho'qqisini asosan murakkab changlanuvchi o'simliklar 84,2% tashkil qildi; baxorda (56,1%) va yoz mavsumida (37,4%) kasallikning simptomlari avj olishi aniqlandi.

Xulosa. Kuzatuvimizda bo'lgan o'smirlarda mavsumiy allergik rinitni keltirib chiqaruvchi omillari olingan taxlillar natijalariga ko'ra mart aprel oylariga to'g'ri kelishi tasdiqlandi. Qo'zg'alishlar cho'qqisi asosan murakkab changlanuvchi o'simliklar baxorda (56,1%) va yoz mavsumida (37,45%) o'simliklar gullashi bilan bog'liqligi aniqlandi.

O'smirlarda mavsumiy allergik rinitni klinik shakllarini aniqlash kasallikning sababchi allergenlari va hamroh allergic kasalliklar, kon'yunktival simptomlar bilan kelganda ko'pincha kasallikning uzoq davom etishi va kasallik og'ir asoratlarni keltirib chiqqarishi aniqlandi.



### ADABIYOTLAR:

1. Abdullaev N.Ch. To'xtayeva O.T. Nazarov O.A.- Erta va maktab yoshidagi bolalarda dermatorespirator sindromning klinik ko'rinishlarining xususiyatlari "Pediatriya" ilmiy amaliy jurnali №3 2022.
2. Allergic rhinitis. Clinical recommendations. M., 2020.
3. Nazarov. O.A, Tuxtayeva O.T. Oral allergy syndrome in children as a cross-reactivity phenomenon. *Pediatriya ilmiy amaliy jurnali* 2019; 3: 73-77.
4. Nenasheva N.M., Shilenkova V.V. Kontrol simptomov allergicheskogo rinita u vzroslih v Rossiyskoy Federatsii: rezultati onlayn-oprosa.RMJ. *Meditsinskoe obozrenie*. 2021; 5 (1): 25-31.
5. Revyakina V.A., Dayxes N.A., Geppe N.A. i dr. RADAR. Allergicheskiy rinit u detey. Rekomendatsii i algoritm pri detskom allergicheskom rinite. 3-ye izd., pererab. i dop. M.: Media Medichi, 2020.
6. Xaitov M.R., Namazova-Baranova L.S., Chuchalin A.G. i dr. ARIA 2016: Sovremennie napravleniya okazaniya meditsinskoy pomoshi bolnim allergicheskim rinitom v svete trebovaniy presizionnoy meditsini. *Rossiyskiy allergologicheskiy jurnal*. 2017; 14 (3): 46-54.
7. Tuxtayeva O.T. Risk razvitiya i xronologiya allergicheskix zabolevaniyu detey. *Pediatriya ilmiy amaliy jurnali* 2019; 1: 60-65.
8. Tuxtayeva O.T., Xidirova Sh.I. Cbornik nauchnih trudov. Mejdissiplinarnie problemi detskoy allergologii. I nauchno - prakticheskaya konferensiya detskix allergologov s mejdunarodnim uchastiem. Tashkent. 2019; 53.
9. Fayzullina R.M., Shangareeva Z.A., Sannikova A.V. Kontrol simptomov sezonogo allergicheskogo rinita u podrostkov na fone priema bilastina. *Effektivnaya farmakoterapiya*. 2022; 18 (37): 20-23. DOI 10.33978/2307-3586-2022-18-37-20-23
10. Federal clinical recommendations. *Allergology*. Edited by N.I. Ilyina, R.M. Khaitov. M. "Pharmarus print media". 2014: 110. /Federal Clinical Recommendations. *Allergology*. Ed. by N.I. Ilyina, R.M. Khaitova. M. Farmarus Print Media. 2014: 110.